



## TALABA YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHDAGI MUAMMOLAR

**Hikmatov Muhridin Izzatillo o'g'li**

Toshkent shahri IIBB XPB Profilaktika katta inspektori, Kapitan  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14835743>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Fevral 2025 yil  
Ma'qullandi: 06-Fevral 2025 yil  
Nashr qilindi: 08-Fevral 2025 yil

### KEY WORDS

*jinoyat, huquqbuzarlik, talaba, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik, o'g'irlik, firibgarlik, kiberjinoyatlar, kriminologiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada talaba yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olishgi muammolar hamda ishni tashkil eitsh mexanizmlari to'g'risida fikr-mulohazalar bayon qilindi. Shuningdek, xorij tajribasi ham tahliliy yoritildi.*

Bugungi kunda O'zbekistonda talaba yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar, jinoyatchiliklar va ularni oldini olish kriminologiyaning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Xususan, talaba yoshlar o'rtasida qasddan badanga tan jarohati yetkazish, talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik, o'g'irlik, firibgarlik hamda kiberjinoyatlar kabi huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishi davom etib kelmoqda.

Odatda ota-ona farzandini ta'lim olishi uchun barcha sharoitni yaratmoqda. O'qish uchun mablag', o'quv qurollari, ijara muammosi, internetdan keng foydalanishiga kerak bo'lsa kompyuterni ham olib bermoqda. Maqsad o'g'li yoki qizini ma'lum bir kasb egasi bo'lishidir. Lekin uning qadriga munosib javob bera olayotgan talaba ilm olish bilan band. Shuning barobarida so'nggi vaqtlarda darsdan tashqari vaqtini behudaga sarflayotgan talabalar ham ko'payib bormoqda. Natija yo huquqbuzarlik yo jinoyatchilik sodir etishi bilan ta'lim olishi yakunlayman yo umri panjara ortida o'tmoqda.

So'nggi vaqtlarda talaba-yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning aksariyati qo'l telefoni orqali yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, talaba-qizlarning suratlarini tarqatish bilan qo'rqitib pul talab qilish xolatlari insonni hayratlantiradi. Ota-onalar esa farzandining bunday qilmishlaridan bexabar. Mazkur huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning asil sabablari oson yo'l bilan ko'p pul topishga qaratilgan. Har qanday huquqbuzarlik va jinoyatchilikning kelib chiqilishida ota va ona tomonidan o'z vaqtida berilmagan milliy tarbiyaning natijasidir. Ammo bu tarbiya vositasi barchaga ham birdek ta'sir qilmasligi, hattoki mahkumni salbiy jihatlarini yanada rivojlantirib yuborishi mumkinligini anglash qiyin emas. Bu oddiy haqiqat.

Biz yosh avlodimizning sog'lom hayoti va kelajagini ta'minlash uchun giyohvandlikning oldini olish, yoshlarda bunday vositalarga nisbatan kuchli immunitetni shakllantirish hamda ularning noqonuniy aylanmasiga, ayniqsa, internet tarmoqlari orqali tarqalishiga chek

qo'yishga qaratilgan milliy strategiyamizni qabul qildik va uni qat'iy ijro etishga kirishdik. Zero, kelajak yoshlar qo'lida, bugundan boshlab yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbuzarlikka butunlay barham berishga qat'iy kirishilsa, kelgusi avlod ham shu ruhda tarbiya topadi.

Shu maqsadda, hozirda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha yondashuvlar tubdan o'zgardi. Ilmiy jihatdan o'rganish tizimi joriy etildi. Huquqbuzarlik sodir etilishi yoki undan jabrlanishi mumkin bo'lgan fuqarolarni tezkorlik bilan profilaktika inspektorlari vaqtida aniqlashlari hamda mavjud muammolar "mahalla yettligi" tomonidan samarali hal etilishi uchun ijtimoiy profilaktika tizimi va uning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari ishlab chiqilib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Har bir sodir etilayotgan jinoyatchilikka oid tendentsiyalarni kompleks ilmiy yondashuvlar asosida aniqlash, tizimlashtirish va salbiy omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tizimida O'zbekiston Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi. Bu o'z-o'zidan kutilayotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda prognozlash mumkinligini so'nggi yillardagi farmon va qarorlarda vazifa etib belgilangan.

Soha mutaxassislarini qiynayotgan masala ham asosan yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qaratilgan. Chunki kunora internet tarmoqlarida bong urib chiqayotgan yoshlarning xurmacha qiliqlari oqibati yo huquqbuzarlik yo jinoyatchilik sodir etilishi bilan yakun topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-oktyabrdagi Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrigida ham huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida: "Xususan, Xiva tumanining Istiqlol mahallasi namuna sifatida belgilanib, shu asosda 314 ta kriminogen vaziyati og'ir mahallada raqamlashtirish jarayoni to'liq amalga oshirildi. Yonma-yon joylashgan, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni kichik hududlarga ajratgan holda, ularda yangicha ish uslublari orqali jamoat tartibini saqlash bo'yicha Namangan shahar tajribasi yaratildi", - deya, alohida ta'kidlab o'tdi.

Hozirda bu borada juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo ko'pchilik talaba yoshlar o'zi sodir qilgan ijtimoiy havfli qilmishini to'g'ri baholay olmayotgani, ushbu harakatlari jinoyat yoki huquqbuzarlik ekanligini anglab yetmagani oqibatida ta'lim olishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ulardagi mafkuraviy-g'oyaviy bo'shliqni o'rnini kerakli bilimlar bilan to'ldirishida ota-onalar va ustozlar tomonidan jiddiy va doimiy nazoratga olinishi zarur. Shuningdek, yosh avlod o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularga har bir jinoyat yoki huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyati nimadan iborat ekanligini tushuntirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, o'z vaqtida jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlardagi ilmiy tadqiqot markazlarida talaba yoshlar jinoyatchiligi bo'yicha muammolarni o'ziga milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratmoqda.

2023-yil aprel oyida Britaniya Ichki ishlar vazirligi Sharqiy Midlenddagi yettita universitet va oliy o'quv yurtlarida talabalarning jinoyat qurboni bo'lish holatlari bo'yicha tadqiqotini e'lon qilgan edi. Unga ko'ra, 315 nafar talabalar orasidan 31 foizi oldingi 12 oy ichida jinoyat qurboni bo'lgan. 10 foizi o'g'irlik qurboni bo'lgan. Xususiy ijarada yashovchi talabalar turar joylarida yashovchi talabalarga qaraganda o'g'irlikni ikki baravar ko'proq sodir etgan (12 foizga nisbatan 5 foiz).

Shundan so'ng Britaniyadagi bir qator universitetlar talabalar shaharchasida va tashqarisida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha dastur ishlab chiqdi. Mazkur dastur bir necha strategiyalardan iborat bo'lib, birinchisi, talabalar universitetdagi o'qish ta'tillari paytida o'z mulklarini saqlashlari mumkin bo'lgan yangi yaratilgan xavfsiz saqlash xonalariga joylab ketadigan bo'ldi. Chunki talabalarning buyumlari o'g'irligi keskin oshgan edi. Yana bir strategiya talabalarga huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yozma yo'l-yo'riqlarni varaqalar va talabalar shaharchasi atrofida plakatlar shaklida tarqatdilar. Ba'zi universitetlar talabalarga elektron pochta xabarlaridan foydalanib, ularga jinoyat bilan bog'liq muayyan ko'rsatmalar, masalan, kampus va uning atrofida turli turdagi jinoyatlar sodir etilganligi va jinoyatlarni sodir etishda qo'llanilgan taktikalar haqida ma'lumot berishni joriy etdilar. Ba'zi universitetlar esa talabalar va xodimlarni shubhali xatti-harakatlardan ehtiyot bo'lishga va bu haqda xavfsizlik bo'limiga yoki mahalliy politsiyaga guvoh bo'lgan jinoyatlar haqida xabar berishga undaydigan "Campus Watch" dasturlarini targ'ib qildilar. Talabalar yashaydigan xususiy turar-joylarda jinoyatchilikni kamaytirish strategiyasi uy egalarini akkreditatsiya qilish sxemasi bo'lib, uy egalaridan talabalarning yong'in xavfsizligi uchun qoidalarni bilishni talab qildilar. Bu kabi davlatlardagi talabalar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchiliklar to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin. Zero, har bir jinoyat uchun javobgarlik muqarrardir.

Demak, jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin uni muhokama qilish, jazolash choralari ko'rish, kelgusida bunday salbiy oqibatlarini oldini olishda unchalik samarali usul hisoblanmaydi. Agar yoshlar o'zlari sodir qilayotgan harakatining huquqiy oqibatini anglab yetganida, jinoyat va huquqbuzarlik haqida tushunchaga ega bo'lganida bu harakatlarini sodir qilmasligi mumkin edi. Amaliyotda ayrim yoshlar o'zganing mulkini ochiqdanochiq talon-taroj qilish (O'z.R.JK.166-modda), qo'rqitish orqali o'zganing mulkini egallash (O'z.R.JK.165-modda) kabi jinoyatlarni sodir qilishganidan keyin ular bilan surushtiruv harakatlari davomida suhbatlashilganda, ular bu ishni oddiy bolalarcha qiziqish yoki hazil qilish natijasida sodir qilganliklarini ma'lum qiladi. Ularning xatti-harakatlarini tengdoshlari oldida muhokama qilish, o'zlarining o'y-hayollari bilan band bo'lgan yoshlar ongiga ijobiy va samarali ta'sir qilishi qiyin masala.

Shuning uchun bugungi kunda xorij tajribasi asosida samarali strategik rejani ishlab chiqish zarur. Yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish, talaba yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

-so'nggi paytlarda talaba yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarni aniqlab, tizimli tahlildan o'tkazish va ularni tegishli guruhlariga tasniflash kerak;

-talaba yoshlarga birinchi kursga kelgan kunida jinoyat va huquqbuzarlikning keltirib chiqarilishi va uning oqibatlari javobgarlik bilan yakun topishiga qaratilgan metodik qo'llanmalar berilishi lozim;

-aynan mutaxassisligi bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturiga ham o'zgartirishlar kiritib, JK va MJtKda nazarda tutilgan, fuqarolar tomonidan ko'proq sodir qilinayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar haqida to'liqroq tushuncha beruvchi dars soatlarini joriy qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarga vatanni sevish, uni ardoqlash, vatanparvarlik tuyg'ularining kamol topishi, bugungi kundagi ijtimoiy vaziyat, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga

qaratilayotgan e'tiborning kuchaytirilganiga qaramay, ular huquqbuzarlik va jinoyat sodir etayotgani achinarli. Talaba yoshlar bilan profilaktik ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy kurashish mexanizmlarini yaratish zarurdir. Shunday ekan, har bir zamon va makonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ota-onalarning, shu jumladan, ta'lim tizimining ham o'rni beqiyosdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrigida. 25.10.2024 <https://president.uz/uz/lists/view/7646>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2022 yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston halqiga murojaatnomasi.
3. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4 January 2023 yil, <http://www.newjournal.org/>
3. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik, 2-nashri, 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiyar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari// Tahrir hay'ati: N.Karimov va boshqa; To'plovchi: B.Qosimov; Izohlar va lug'atni O.To'laboev tuzgan /T.: "Ma'naviyat", 2006. – B-37.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi "Toshkent shahrida Jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3786-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar—kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida" 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ92-son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 apreldagi PQ-201sonli "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. "O'zbekiston — 2030" Strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llabquvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida PF-37-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 noyabrdagi "Yoshlar — kelajagimiz" davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida 962-son Qarori.